

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati.....	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldasbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar.....	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar.....	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabev Nodir Abdurahimovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



UDK: 33.2964

O'ZBEKİSTONDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA O'RTA MUDDATLI SOLIQ- BUDJET SIYOSATINING AHAMIYATI

Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududlarni rivojlantirish islohotlarining bugungi bosqichi doirasida davlat budgeti tizimida mahalliy budgetlar daromad bazasini kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hududlar taraqqiyotining xususiyatlari va sifat ko'rsatkichlari, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari, xo'jalikning asosiy tarmoqlari hamda ularning ixtisoslashuvi tahlil qilinadi. Maqolada miqdoriy ko'rsatkichlar, qonunchilikka rioxalish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim o'rinni tutadi.

Kalit so'zlar: mahalliy budgetlar daromad bazasini kengaytirish, budget, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, soliq ma'muriyatichiliq, mol-mulk soliqlari.

Abstract: This article examines the issues of expanding the revenue base of local budgets within the state budget system at the current stage of regional development reforms. It analyzes the characteristics and qualitative indicators of regional development, priority directions of growth, the main economic sectors, and their specialization. The article also highlights quantitative indicators, compliance with legislation, and measures aimed at improving efficiency.

Keywords: expansion of local budget revenue base, budget, socio-economic development, tax administration, property taxes.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы расширения доходной базы местных бюджетов в системе государственного бюджета на современном этапе реформ развития регионов. Анализируются особенности и качественные показатели развития регионов, приоритетные направления развития, основные отрасли хозяйства и их специализация. В статье также уделяется внимание количественным показателям, соблюдению законодательства и мерам, направленным на повышение эффективности.

Ключевые слова: расширение доходной базы местных бюджетов, бюджет, социально-экономическое развитие, налоговое администрирование, имущественные налоги.

KIRISH

Respublikamizda hududlarning rivojlanishi islohotlarning bugungi bosqichida davlat budget tizimida mahalliy budget daromad bazalari yildan-yilga salmog'i ortib borayotgani kuzatilmogda. Mamlakatimizda mahalliy budget daromad va xarajatlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni qondirishni, shuningdek hududlarning iqtisodiy rivojlanishini markazlashgan tartibda bajariladigan tadbirlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq holda ijro etishga imkon bermoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur" [4]. Mahalliy budgetga yangi soliq manbalarini izlab topish, soliqqa tortishni zamonaviy texnologiyalar orqali tezkor tatbiq etish va mavjud soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha yetarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mahalliy soliqlarni undirishdagi muammolarning haqiqiy holati hali to'liq tadqiq etilmagan. Shu bois mahalliy budget soliq daromadlari faoliyatini hamda soliqqa tortish bazasini o'rganish va tahliliy masalalarni amalga oshirish mazkur mavzuning dolzarbigini belgilab bermoqda.

2024-yil 1-yanvardan amaliyatga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, barcha tizimdagi soliq to'lovchilar o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash va o'xshash bazaga ega soliqlarni birlashtirish belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

V. Voxobov va X. Jamolov budgetlararo munosabatlarni tartibga solish mamlakat moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlaydi [5]. Fikrimizcha, budgetlararo munosabatlarning uyg'unligi resurslarni hududlar o'rtasida adolatli taqsimlashga xizmat qiladi.



B. Rahmatullayev soliq tamoyillari davlat soliq siyosatini to'g'ri yo'naltirishda asosiy metodologik mezon bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi [6]. Olimning fikricha, soliq tamoyillariga amal qilish nafaqat budget daromadlarini barqarorlashtiradi, balki iqtisodiy faoliyatga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

A. Allakulliyev o'rta muddatli budgetlashtirish tizimini milliy iqtisodiyotga joriy etish davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [7]. Unga ko'ra, bu tizim rejalashtirishni barqarorlashtiradi va moliyaviy intizomni kuchaytiradi.

B. Musayevning fikricha, o'rta muddatli soliq-budget siyosatini samarali yuritish fiskal barqarorlikni mustahkamlash va davlat budgeti daromadlarini diversifikatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi [8]. Olim davlat moliyasini boshqarishda prognozlash va rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

M. Qosimova o'rta muddatli budgetlashtirish hududlar moliyaviy mustaqilligini oshiradi va mahalliy budgetlarning barqaror daromad bazasini shakllantirishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi [9]. Unga ko'ra, bu jarayon mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy institutlar nashrlaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni o'rganish va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bugungi kundagi o'ta mas'uliyatlari holati hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangidan-yangi muammolarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Hozirgi kunning global vazifalarini hal etishning samarali usullarini qidirib topishgina emas, balki iqtisodchi olimlar diqqat-e'tiborini jahon iqtisodiy xazinasi durdonalaridan iborat potensialdan, jumladan jahon miqyosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish konsepsiyasining uslubiy, metodologik va nazariy ahamiyatini o'rganishga qaratish ham muhim hayotiy zaruviyatdir.

Hududiy iqtisodiyot muammosini ilmiy talqin etishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi, mazkur muammoga hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlar mavjudligi bois davlatning qoloq hududlarni qo'llab-quvvatlashi zarurligini ta'kidlash nuqtai-nazaridan yondashishdir. Ikkinchisi, mazkur muammoga har bir hudud o'zi egalik qilayotgan iqtisodiy imkoniyatlardan ko'proq, hatto to'liq foydalanishi zarurligini, har bir hudud o'z ijtimoiy muammolarini o'zi hal qilishi lozimligini yoqlash orqali yondashishdir.

Iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, milliy valyutaning qadrini mustahkamlash va ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlash – har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda eng muhim instrumentlardan biri – fiskal (soliq-budget) siyosatdir.

O'zbekistonda bugungi kunda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlar mamlakatning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yogba chiqarish, davlat budgetining barcha darajalarda mutanosibligini ta'minlash va davlat moliyasini shaffof, natijador hamda mas'uliyatlari boshqarishga yo'naltirilgan.

O'rta muddatli soliq-budget siyosatiga to'liq o'tish. O'rta muddatli (odatda 3–5 yillik) soliq-budget siyosati mamlakat moliyaviy rejalashtirish tizimini isloh qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Fiskal intizomni kuchaytirish – davlat xarajatlari va daromadlarini oldindan rejalashtirish orqali budget tanqisligini kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

- Siyosiy barqarorlik va ishonchni oshirish – o'rta muddatli budget siyosatlari investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar uchun shaffoflik hamda kutilmalarni kuchaytiradi.

- Iqtisodiy shoklarga tayyorgarlik – soliq tushumlaridagi o'zgarishlar yoki tashqi iqtisodiy omillar ta'sirida barqaror moliya yuritish imkoniyati ortadi.

"Yuqorida pastga" budgetlashtirish yondashivi. Bu yondashuvda markaziy hukumat umumiy strategik maqsadlarni belgilaydi va ushbu maqsadlarga erishish uchun mahalliy budget tashkilotlariga muayyan moliyaviy chegaralar doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

- Joylardagi ehtiyojlarni inobatga olish – mahalliy organlar o'z hududining real ehtiyojlaridan kelib chiqib budget mablag'larini taqsimlaydi.

- Hisobdorlik va mas'uliyatni oshirish – mahalliy organlar o'zi qabul qilgan qarorlar uchun javobgar bo'ladi.

Makrofiskal nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish. Makrofiskal nazorat davlat budgetiga ta'sir etuvchi omillarni, jumladan soliq tushumlari, tashqi qarzlar, davlat kafolatlari va boshqa moliyaviy majburiyatlarini muntazam tahlil qilish hamda baholash tizimidir.



• Fiskal tavakkalchiliklarni baholash modullari – iqtisodiy inqiroz, tabiiy ofatlar yoki global moliyaviy shoklar kabi xavflarni oldindan baholash orqali ularni kamaytirish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Budjet mablag'larining natijadorligini baholash va hisobdorlikni oshirish. Budjet mablag'lari endi faqat sarflangan miqdorga emas, balki erishilgan natijaga qarab baholanadi. Bu "natijaga asoslangan budgetlashtirish" (performance-based budgeting) prinsipi quydagierni nazarda tutadi:

- Ilgari surilgan maqsadlarga erishish – har bir xarajat ortidan qanday natija kutilyapti, degan savolga javob beriladi.

- Hisobdorlik – budjet mablag'larini taqsimlovchi idoralar o'z faoliyati uchun javobgar bo'ladi va jamoatchilikka hisob beradi.

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilayotgan o'rta muddatli soliq-budget siyosatini joriy etish, natijaga asoslangan boshqaruv hamda hisobdorlikni kuchaytirish davlat moliyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayon nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshiradi, balki davlat boshqaruvini demokratiklashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bunday islohotlar barqaror, shaffof va samarali davlat moliya tizimini yaratishga qaratilgan.

Makroiqtisodiy taxminlashtirishning umumiy qonuniyatları nuqtai-nazaridan to'g'ri hisoblangan holatlar hududiy tizimda maxsus ahamiyat kasb etishi va aniq olingan hudud manfaatlari nuqtai-nazaridan boshqacha talqin qilinishi mumkin. Mamlakat miqyosidagi umumiy holatni hududiy iqtisodiyot bilan qiyoslaganda, hududda jamiyat turmush darajasi barqarorligini ta'minlash bilan birga hududiy tizim barqarorligini ham e'tiborga olish zarurligi alohida ta'kidlanishi lozim. Amaliyotda bu masalani respublika markaziy hukumati hal qiladi. Markaz uchun hudud makroiqtisodiy tizim va makroiqtisodiy tartibga solish obyektiidir.

Hududlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari sifat ko'rsatkichlari – rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, xo'jalikning bazaviy tarmoqlari va ixtisoslashuv hamda miqdoriy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, yo'l ta'minoti, suv ta'minoti va boshqa infratuzilmaviy sharoitlar, aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi bo'yicha hududlar bir-biridan nafaqat "foizlarda", balki "martalarda" ham farq qilmoqda.

Hududlarning moliyaviy-budget rivojlanishi istiqbollari belgilanayotganda iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ma'muriy usullardan holi tarzda, yuqori organlarning ortiqcha aralashuvisz, asosan hududda yaratilgan va jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Hududda barcha subyektlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar quydagi tamoyillarga asoslanadi: mahalliy budjet daromadlarining barqarorligini iqtisodiy potensialni samarali rivojlantirish orqali ta'minlash; mahalliy budjet uchun daromad manbalari, ajratmalar stavkalari va xarajatlar turlarini ularning funksiyalariga muvofiq qat'iy belgilash; hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida korxonalar, tashkilotlar, davlat korxonalari, aholining mablag'lari va xorijiy investitsiyalarni jalg etish hamda ularni muvofiqlashtirilgan holda ishlatish.

Hududlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy budgetlar muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. Mahalliy budgetlar orqali aholi turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ta'limga, sog'liqni saqlash, yo'l qurilishi va kommunal xizmatlar kabi sohalar moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida hududlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikka erishish maqsadida mahalliy budgetlar tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Bu jarayonda mahalliy hokimiyat organlarining to'liq tasarrufida bo'lgan mablag'lari alohida o'r'in tutadi.

Mahalliy budgetlar asosan soliqlar va majburiy yig'imlar hisobidan shakllanadi. Ularning huquqiy asoslari Soliq kodeksida belgilangan bo'lib, soliq to'lovchilar, imtiyozlar, to'lov muddatlari va mexanizmlar aniq tartibga solingen.

Mahalliy budget daromadlarining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etadi. Shu bois mahalliy budgetlarning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan soliq bazasining kengligi va to'lov intizomiga bog'liq. Bu yo'nalishda so'nggi yillarda soliq ma'muriyatini raqamlashtirish (E-Soliq, elektron hisobotlar), norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish, soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va samaradorligini baholash, soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratish orqali bazani kengaytirish choralarini amalgalashtirish.

Mahalliy budget mablag'lari ustidan samarali tasarrufni ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlari – hokimliklar, moliya organlari va boshqa tegishli tuzilmalar mas'uldir. Ular budget mablag'larini shakllantiradi, xarajat yo'nalishlarini belgilaydi hamda shaffoflik va natijadorlikni ta'minlash maqsadida hisobdorlik yuritadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda "natijaga asoslangan budgetlashtirish", "uch yillik budget rejalashtirish", "budget jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash" kabi yondashuvlar joriy qilinmoqda.

Hududlarning iqtisodiy mustaqilligi va barqaror rivojlanishi, avvalo, mahalliy budgetlar va ularning daromad bazasining mustahkamligiga bog'liq. Bunda soliqlar va yig'imlarning adolatli tashkil etilishi, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy salohiyatini oshirish, budget mablag'larining maqsadli va samarali ishlatalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Mahalliy budgetning soliq daromadlari tarkibida mol-mulk solig'i barqaror baza sifatida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu soliq tushumlari xo'jalik faoliyati natijalariga sezilarli darajada bog'liq emas va yuridik hamda jismoniy shaxslar mulkining qiymati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiyot muammolari va mahalliy budgetni boshqarish amaliyoti hozirgi holatining tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

O'zbekiston Respublikasida mahalliy moliyalarning amal qilishi va rivojlanishi hududiy iqtisodiy siyosat konsepsiyasiga asoslanadi. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun hududiy moliyaviy siyosat to'lovga qobiliyatli talabni va uning hududiy taqsimlanishini prognozlashtirishni, hududiy moliya bozorlarini o'rganishni, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini baholashni hamda hududlarning o'z moliyaviy potensiali rivojlanishini rag'batlantirishni o'z ichiga olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hamda tabiiy-jug'rofiy joylashuvidan xususiyatlardan kelib chiquvchi tafovutlar davlatning mahalliy budgetni boshqarish siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning natijasida mahalliy budget bo'g'indori o'rtaida budget majburiyatlarining taqsimoti mezonlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Mazkur tafovutlar turli hududlar budget majburiyatlarining ayrimlarida bir muncha yuqori, boshqalarida esa moliyaviy imkoniyatlarining taqsimotida keskin yetishmovchilikni keltirib chiqaradi. Ushbu holatlar davlatning mahalliy budgetni boshqarish siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budgetning budget tizimida tutgan o'rni va ahamiyati amaldagi budget qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Budget kodeksi»da ushbu asoslar timsolida mahalliy budget shakllanish imkoniyatlari va ularni samarali boshqarish yo'nalishlari uchun zamin yaratilgan. Biroq, mamlakatimizda budgetlararo munosabatlarning yangi modeli hamda budget-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirleri va ularning real ijrosi hali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, hududiy iqtisodiyot muammosining mahalliy budgetni shakllantirish va boshqarish amaliyoti uchun bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning imkoniyatlarini muttasil yaxshilab borish zarurligini belgilovchi qator jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

davlatning u yoki bu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolarini hal etish yuzasidan siyosatini mukammallashtirish hududlar taraqqiyotidagi tafovutlarni samaradorlikni rag'batlantirish orqali manfaatdorlikni saqlagan holda bartaraf etishga asoslanishi lozim;

yagona yondashuv davlatning yaxlit siyosatidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik asosida barcha hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qamrab olishi va imkon qadar ularni hal etishni ta'minlashi kerak;

tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bir xil bo'lgan hududlarda samaradorlikni rag'batlantirish orqali tabaqaqlashtirilgan holda yondashuv zarur;

davlat siyosatining strategik va taktik vazifalaridan kelib chiqib, davlat ko'magiga muhtoj hududlar uchun maxsus imtiyozli rejim saqlanib qolishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasiga qarabgina o'zgartirilishi mumkin;

mintaqaviy rivojlanish dasturlari va hududlar taraqqiyotining istiqbollari muvofiqlashtirilishi hamda mazkur davrda davlat siyosatining keskin o'zgarishlari chuqur tahlil etilishi va keng xalq ommasiga yetkazilishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvar kungi 23-sonli Qarori "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi".
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
5. Boxobov B.A. Жамолов Х.Н. "Согласование межбюджетных отношений". Финансы 2002 года.
6. Rahmatullayev, B. A. Soliq tamoyillari : darslik. – Toshkent : TDIU, 2021. – 280 b.
7. Allakulliyev, A. O'rta muddatga mo'ljallangan byudjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari : iqt. fan. bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 42 b.
8. Musaev, B. M. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq ma'murchilagini takomillashtirish masalalari // Moliya va hisob. – 2019. – № 6. – B. 25–32.
9. Qosimova, M. Sh. Hududiy moliya va mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta'minlash yo'llari. – Toshkent : Iqtisodiyot, 2018. – 210 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100